

OGAHYNING “SALLAMNO” RADIFLI G‘AZALI TAHLILI

Djamalov Olim Abdumalik o‘g‘li

*Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti 2-kurs yaponshunoslik fakulteti
talabasi jamolovlim@gmail.com, +998 94 060 16 22*

Anvar Allambergenev

*Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, TDSHU o‘zbek tili va
adabiyoti kafedrasi dotsenti*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Muhammad Rizo Ogahiy qalamiga mansub “Sallamno” radifli g‘azalning badiiy va shakliy jihatlari tahlilga tortilgan. Tahlillar davomida shoirning badiiy mahorati, tasviriy vositalar va she‘riy san‘atlardan foydalanishdagi o‘ziga xosligiga alohida e‘tibor qaratiladi.*

Kalit So‘Zlar: *“Ta‘vizul-oshiqin”, devon, badiiy san‘atlar, vazn, radif, shohbayt, badiiy mahorat.*

Mumtoz o‘zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri bo‘lgan Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy zamonasining peshqadam shoiri, tarixchisi va tarjimoni sifatida o‘zidan g‘oyatda katta adabiy meros qoldirgan. Ammo uning ijodiy me‘rosi haqida gap ketar ekan, Ogahiy lirikasi degan tushunchani alohida ilgari sursak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki Ogahiy sharq adabiyotida mavjud deyarli barcha janrlarda ijod qilgan, qalami o‘tkir so‘z san‘atkori, yuksak iste‘dodli shoirlardandir. U o‘z lirikasini bitta devonga jamlab, “Ta‘viz ul-oshiqin” deb nomlaydi. Devon an‘anaviy tartibda tuzilgan, 470 g‘azal, 3 mustazod, 89 muhammas, 5 musaddas, 2 murabba, 4 musamman, 4 tarje‘band, 7 qit‘a, 80 ruboiy, 10 tuyuq, 1 mulamma, 4 chiston, 2 muammo, 4 masnaviy, 1 bahri ta‘vil, 1 munojot, 1 oshiq va ma‘shuq savol-javobi, 20 ta‘rix, 19 qasida — jami 18000 misradan iborat.

Ogahiy g‘azallari haqida gap ketar ekan, mazmun ko‘lamining kengligi, badiiy san‘atlardan ustalik bilan foydalanilganligi, pishiq va puxtaligi, shuningdek, tasviriy ifodalarning tabiat hodisalari bilan uyg‘unlashganligi g‘azal qimmatini yanada oshirish uchun xizmat qiladi. Quyida tahlil qilinadigan “Sallamno” radifli g‘azal orqali ham buni yaqqol his qilishimiz mumkin.

“Sallamno” radifli g‘azal yakpora g‘azallar turkumiga mansub bo‘lib, “Shashmaqom”ning turli kuylariga tushadigan, aruz vaznining adabiyotimizda keng tarqalgan, hazaji musammani solim vaznida bitilgan. Afoiyli sakkizta mafoiylun ruknining bir baytda takrorlanishidan hosil bo‘ladi. Taqte‘si quyidagicha:

V- - - / V- - - / V- - - / V- - - .

Bunday shakl g‘azalning o‘ynoqi va ohangdorligini ta‘minlagan. Radifi - har bayt oxirida (matla‘da ikki marta) qaytariluvchi “sallamno” so‘zi. Qofiyasi mutlaq qofiya, asosan forsiy, qisman arabcha so‘zlardan tashkil topgan bo‘lishiga qaramasdan, umumiy jihatdan o‘ziga xos turkiy ifor yaqqol sezilib turibdi.

Olur har lahza yuz jon chashmi fattoning'ga sallamno

To'kar har damda ming qon tiyg'i mujgoning'ga sallamno.

G'azal boshdan oyoq ma'shuqaning tasviriga bag'ishlangan. Hatto shoir matla'ning o'zidanoq o'z yorini alqashga tushib ketadi. Baytning birinchi misrasida asosiy tasvir vositasi sifatida ko'z qalamga olingan. Ko'zga nisbatan "chashmi fatton" istiorasining qo'llanayotganligida o'ziga xos ramziy ma'no mavjud. "Chashmi fatton" – "fitna qiluvchi" demakdir. Bu orqali yorning noz bilan, suzilib qarashiga ishora mavjud. Uning bunday nigohlari esa har safar oshiqning yuz jonini oladi. Ikkinchi misrada tasvirlangan "tiyg'i mujgon", ya'ni tig' kabi o'tkir kipriklari oshiq qalbiga o'qdek botib, uning bag'rini qon aylaydi. Ogahiy chin ma'nosi ila zahmatkash san'atkor. Uning qalbida quloch yozgan milliy hislar nihoyatda toza va samimiy, dard va iztiroblari hayotiy. Matla'da shoir yor tasvirini chizib, unga tasanno aytish bilan birga o'zining g'arib ahvoli haqida ham mahorat bilan aytib o'tib ketadi.

Jahon bozorida sindurdi yoqut-u guhar qadrin,

Durafshon nukta birla la'li xandoning'ga sallamno.

Ushbu baytdagi ma'nosi mavhumroq bo'lgan so'zlarga aniqlik kiritib olamiz. "Durafshon" – "dur sochuvchi", "nukta" – "so'z, yorning go'zal kalomi", "la'li xandon" – "kulib turuvchi lab". Endi bu baytdan shu ma'lum bo'ladiki, ma'shuqa dudoqlaridan chiqayotgan kalomlarning bahosi shunchalik baland, xaridori shunchalik ko'pki, hatto yoqut-u gavharlarning ham qadri tushib, hech kim qiziqmay qo'ydi. Oshiq esa bunga "Sallamno" deyishdan bo'lak chora topa olmaydi.

Asir aylab kamandig'a parishon ko'nglum etdi jam,

Musalsal halqayi zulfi parishoning'ga sallamno.

Mumtoz adabiyotimizda ma'shuqa sochlari nisbatan "zulfi parishon" atamasini qo'llash an'ana tusiga kirganligini yaxsi bilamiz. Uchinchi baytda aynan yorning sochlari qalamga olinadi. E'tibor beradigan bo'lsak, bu baytda shoir xayolotining naqadar cheksiz ekanligiga guvoh bo'lamiz. Ogahiy yorning sochini maqtab turib, uning halqa kabi o'z ko'nglini domiga tushirib, asir etganligini yozadi.

Yuzingdin zarracha partav yetishkach tiyra kulbamg'a,

Yoritdi hajr shomin mehri raxshoning'ga sallamno.

To'rtinchi baytda ham o'ziga xos shoirona ruh sezilib turibdi. Endi tasvir navbati yorning quyosh yanglig' nur taratib turuvchi yuziga keldi. Yor yuzidagi zarracha partav, ya'ni shu'lani ko'rishning o'ziyoq oshiq ko'nglidagi hijron zimistonini yoritib yubordi. Bu baytdagi "tiyra kulba" birikmasini noto'g'ri tushunib, g'azal mohiyatini boshqacha talqin qilmaslik kerak. Aniqrog'i, bu yerda yor oshiqning xarob kulbasiga tashrif buyurib, uning faqir hayotini o'zgartirib yuborayotgani yo'q. Balki "tiyra kulba" bu oshiq qalbining istiorasi sifatida birinchi misrada qollangan, desak to'g'ri bo'ladi.

Sihi qadlarni qumri yanglig' etdi ishqida nolon,

Nazokat bog'ida sarvi xiromoning'ga sallamno.

Bu baytda Ogahiy o'xshatishning nozik jihatlaridan mahorat bilan foydalanadi. Tahlilni ikkinchi satrdan boshlasak, tushunishga qulayroq bo'ladi. Shu baytning

ikkinchi misrasida qo'llangan "sarvi xiromon" yor qaddi niholining istioraviy ramzidir. Shoir shu qadni barcha tik narsalardan ustun qo'yib, unga olqish bildiradi, chunki u o'z ishqida ne-ne qaddi sih oshiqhlarni ham qumri kabi nola-yu faryod etishga majbur qilgan. Bu yerda qumrining shakl-shamoyili emas, tinimsiz chug'ur-chug'uri oshiqqlar faryodi sifatida tashbihga olingan.

Agar ko'rsa erdi Yusuf malohatlig' jamolingni,
Der erdi sidq ila: «Ruxsori toboningg'a sallamno».

Mumtoz adabiyotda biror bir tarixiy shaxs, voqea-hodisa yoki mashhur qissalarga ishora qilish san'ati talmeh deb ataladi. Ushbu baytda talmeh sifatida ishtirok etayotgan Yusuf alayhissalom go'zallik ramzi bo'lib, u insoniyat tarixidagi eng go'zal shaxs hisoblanadi. U bilan bog'liq ko'plab afsona, qissa va hikoyatlar mavjud. Bu bayt orqali shoir o'z maqtovlarining cho'qqisiga erishadi, ya'ni u yorini tarixdagi eng go'zal inson – Yusufdan ham ustun qo'yadi. Agar Yusuf yorning malohatini ko'rganida edimi, hayratdan lol qolib, tasanno aytib yuborgan bo'lar edi.

Chu ehson naqdini sochding jahong'a ganji lutfingdin,
Bori xalq o'ldi bandang naqdi ehsoningg'a sallamno.

Asar g'oyasi borgan sari o'z kulminatsiyasining cho'qqisiga chiqib bormoqda. Shoir endi ehson qilish, xalq mushkulini yengil qilish haqida gapirib, buning natijasida xalqning farovon yashab, ehson ulashgan kishiga o'z sadoqatini bildirishi tasvirlangan. Bu yerda gap ma'shuqa haqida ketyaptimi? Ogahiy she'riyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u o'zining deyarli har bir g'azalida yor tasviridan so'ng, shohbaytdan oldinroq odil podshoh timsoli haqidagi qarashlarini o'z ijod mahsuliga mahorat bilan singdirib yuboradi. Bu bayt orqali ham davr xoniga murojaat qilib, uni o'z xalqiga nisbatan odil bo'lishi kerakligi, shu orqaligina davlat va xalq mushtarakligini ta'minlash mumkinligi haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham nihoyatda e'tiborga molik jihatlaridir.

Riyo-u ujb birla bir suruk johilni, ey zohid,
Mute-yu muxlis etding, makr-u dostoningg'a sallamno.
Urib dam g'ayb sirridin ham etkung da'voyi imon,
Bu yanglig' kufr birla turgan imoningg'a sallamno.

Asta-sekin shoirning asosiy fikri, g'azal orqali beradigan mantiqiy g'oyani o'zida mujassam etgan shohbaytga ham yetib keldik. Shohbayt – baytlardan tashkil topgan she'rdagi eng yaxshi, sara bayt. Shohbayt qasida yoki g'azalda o'zining salmoqli ma'nosi, jozibali yorqin uslubi bilan boshqa barcha baytlardan ajralib turadi. Ana shunday bayt matla' sifatida kelsa, san'at sifatida husni matla' va maqta' shaklida kelganda esa husni maqta' deb yuritiladi. Mumtoz adabiyotimizda esa shohbaytning o'ziga xos an'anaviy o'rni mavjud, ya'ni maqtadan oldin kelgan bayt o'zining g'oyasi, falsafona ruhi bilan boshqa baytlardan yaqqo ajralib turadi. Ushbu g'azalda esa bitta emas, ikkita shohbayt mavjud. Hajm jihatidan kattaroq g'azallarda shunday holatlar ham bo'lishi mumkin.

Bayt tahliliga keladigan bo'lsak, "zohid" tushunchasini to'liq anglab olmog'imiz darkor. Zohid – Alloh ishqi yo'lida tarki dunyo qilgan inson demak. U dunyoning barcha lazzatlaridan voz kechgan, faqat yaratganning visoli umidida yashaydi. Ammo inson o'z yaratuvchisini jannat umidida, narigi dunyoda beto'kis yashash uchun sevishi qanchalik tog'ri? Nima bo'lganda ham, buning ortida manfaat degan tushuncha yotmayaptimi? Allohga chin holis kongil qo'ygan inson ikki dunyosiga ham rozi bo'lishi, biron manfaatni ko'zlamay, taqdiriga rozi bo'lmog'i lozim. Ogahiy yuqoridagi misralar orqali aynan shunday insonlar, qalblaridagi kuforni o'zlari sezmay, yana boshqalarni ham o'zlariga ergashtirib, buning ustiga iymon da'vo qilayotgan tarkidunyochilar, XVIII-XIX asrlarda mutaassiblik kuchli bo'lgan davr ustidan kinoya qilmoqda.

Chekarsan, Ogahiy, tun-kun ul oy javr-u jafosini,
Bu qottig' mehnat ichra chiqmag'an joningg'a sallamno.

Maqtada shoir oshiq nomidan o'z taxallusiga murojaat qilmoqda. E'tibor bergan bo'lsak, maqta'gacha shoir asosan ma'shuqa haqida gapirib, uning ko'zi, kiprigi, yuzi, qaddi va boshqalarga tahsinlar aytadi, ko'kka ko'tardi, o'zini esa faqat jabrdiyda sifatida talqin qildi. Va nihoyat, so'ngi baytga kelib u o'zini ham maqtashga botina oldi. Ammo g'am selidan xonavayron bo'lgan, hijron o'tida kuygan, visol umidida toqati toq bo'lib, butun umri zulmatga to'la tundan iborat shoir nimasi bilan maqtanishi, o'ziga "sallamno" aytishi mumkin? Albatta, shuncha qiyinchiliklardan keyin ham vujudini tark etmagan joniga! G'azal so'ngida ushbu fikrning yuzaga chiqishi uning mantiqiy yakuniga aylangan.

Ogahiy an'anaviy ishq mavzuida qalam tebratgan shoir. U hayot, tiriklik va go'zallik mazmunini shu ishqdan axtargan va topgan. U ishq va muhabbat zavqini – insonni sevish, insonga mehr ko'rsatishda deb bilgan. Va shu ma'noda ko'rgan, bilgan haqiqatlarini xilma-xil ohanglarda she'rlarida aks ettirgan. Shu ishq uning qalbini ilohiy va samoviy hislarga oshno aylagan. Ana shundan keyin haqiqiy muhabbat nimaligini tushunib yetgan va buni o'z ijodining asosiy mazmun-mohiyatiga aylantirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Rizo mirob Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Asarlar. 6 jildlik. 1-jild. Devon. – T.: Adabiyot vs San'at, 1971. – 392 b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati Besh jildlik. 1-jild. A- D. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006. – 680 b.
3. Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rni badiiy qo'llanmasi.